

PUNI URUSHLARI

Maxammadiyev Samandar Azamat o‘g‘li

+99895 2112157

Sherbekova Nigora Obidjon qizi

+99891 9015405

Normo‘minova Xolida Ural qizi

+99888 0691717

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annontatsiya: Ushbu maqolada Rim va Karfagen o’rtasida Sitsiliyaga egalik qilish uchun olib borgan I va II Puni urushlari boshlanishi , urushlar jarayoni va yakuni yoritilgan . Rimliklar Italiyani bosib olishni tugallash davrida Karfagen manfaatlari bilan to‘qnashdi. Ikki davlatning raqobati uchun asosiy sabab boy Sitsiliya edi. Karfagenliklar orolning g’arbiy qismida qadimdan o’rnashib, bu yerda Lilibey, Drepana va Panorm bazalarini qurdilar. Uzoq vaqt Rim va Karfagen er. av, 348, 306 va 279-yillarda tuzilgan savdo shartnomalari. bilan tinchlik munosabatlarini saqlab turdilar. Rim apinnen yarim orolini bo’ysundirish bilan band bo’lgan paytda Karfagen esa Shimoliy Afrikani bosib olish vaqtida ularning manfaatlari to‘qnashmadi, ammo rimliklar janubiy Italiyaga suqilib kirishi bilan vaziyat o’zgardi.

Kalit so’zlar: Puni, Gannibal, Publy, flot, Lipar, provinsiya, Sardiniya.

Rim Respublikasi qudratli davlatga aylanib, O’rtayer dengizi orollari, jumladan, boy Sitsiliyaga hukmronlik qilishga da’vo qila boshladi. Karfagen Rimni kuchayishi va ekspansiyasidan bezovta bo’ldi, har ikki tomon urushga tayyorlana boshladi. Rimliklar karfagenliklami punilar deb atar edilar. Rim va Karfagen o’rtasida uch marta urush bo’ldi. I urush er. av. 264— 241-yillar, II urush er. av. 218—201-yillar, III urush er. av. 149— 146-yillar. Har uchala urushda ham rimliklar g’olib chiqdilar. Karfagenliklar Rim bilan to‘qnashuv arafasida Sardiniya va Korsika orollariga o’mashib olib, butun Sitsiliya ustidan hukmronlik qilar edilar. Sirakuza va Messana shaharlari bundan mustasno edi. Karfagenni Messanani egallahsga urinishi Rim bilan urushni keltirib chiqardi. Rimliklar karfagenliklami puni deb atar edilar. Birinchi puni urushi 23 yil davom etdi. Dastlab harbiy harakatlar Sitsiliyaga boshlanib, rimliklar bu yerda bir necha yutuqlaiga erishdilar. Lekin bu yutuqlar rimliklar uchun hech qanday ahamiyatga ega bo’linmadi, chunki rimliklar dengiz flotiga ega emas edi va bu sohada Karfagen bilan raqobatlasha olmas edilar. Rim qisqa vaqt ichida barcha vositalami ishga solib, er. av. 260- yilda 120 jangovar kemadan iborat harbiy flotga ega boidi. Shu yilda Lipar orollari yaqinida karfagenliklar Rim floti ustidan yengil g’alaba qozondilar. [1]

Dong'i ketgan dengizchi karfagenliklar tez yuradigan kemalarga ega boiib Rim flotiga mensimay qaradilar. Tez orada rimliklar dengizda birinchi g'alabani qoiga kiritdilar, ular harbiy harakatlarni Afrika hududiga ko'chirishga erishdilar Ammo Afrikaga birinchi yurish yaxshi tayyorlanmagani uchun rimliklar muvaffaqiyatsiz tugadi. Urush cho'zilib ketdi va urush harakatlari yana Sitsiliyaga ko'chdi. Har ikki urushayotgan tomonlami kuchlari zaiflashdi. Hal qiluvchi jang er. av. 241-yilda Sitsiliyani g'arbidagi Ebat orollari yonida bo'lib o'tdi. Karfagen floti batamom tor-mor qilindi. Karfagen tinchlik shartnomasini tuzishga majbur bo'ldi va Sitsiliyani qo'ldan boy berdi hamda katta miqdorda tovon to'ladilar. Bir qancha vaqt o'tgach, rimliklar Korsika va Sardiniya orollarini bosib oldilar. Karfagen rimliklarni bu istilosiga chidashga majbur bo'ldi. Bu vaqtda Karfagenning o'zida yollanma askarlar qo'zg'oloni boshlanib, unga Liviya aholisi ham qo'shildi.[2]

Qo'zg'oloning birinchi kuni o'zini ko'rsatgan lashkarboshi Gamilkar Barka tomonidan bostirildi. Qo'zg'olon bostirilgach uning Karfagenda obro'si oshib ketdi. Gamilkar Barka Rimdan o'ch olishni orzu qilgan va rimliklar bilan yangi urush tarafdarlariga boshchilik qildi. Gamilkar urushga yaxshi tayyorgarlik ko'rish uchun Karfagen qo'shini bilan Ispaniyaga jo'nadi. Rimliklar bilan bo'lg'usi urushda platsdarm tayyorlash uchun bu mamlakatni bosib olmoqchi bo'ldi. Ispaniya istilosini vaqtida gamilkar halok bo'ldi, Karfagen qo'shinlariga qo'mondonlik qilish uchun uning kuyovi Gannibal boshchilik qildi. Bo'lg'usi mashhur lashkarboshi Gannibal 11 yoshida rimliklarga qarshi kurashishga qasamyod qilgan. Qo'mondonlik Gannibal qo'liga o'tishi bilan Rim bilan urush qilish masalasi hal qildi. Ikkinci puni urushi er. av. 218-yilda boshlanib, 17 yil davomida g'ayratli sarkarda urush harakatlarini rimliklar hududida olib O'nvensi rejasini tuzdi. Bu rejani O'ntensi oshirish uchun Gannibal qo'shinlari Alp tog'laridan oshib o'tdilar. Gannibal qo'shinlari Rim qo'shinlari ustidan bir necha marta g'alaba qildi.[3]

Er. av. 216-yilda Kann yonidagi jang bu janglami ichida eng mashhuri bo'lib, bu jangda Gannibal rimliklarni qurshab olib to'la tor-mor qildi. Karfagen o'z qo'mondoniga yetarli yordam ko'rsata olmadi. Gannibal biror marta yengilmagan bo'lsa-da, o'z qo'shinlari bilan o'z yurtidan uzoqlashib, janubiy Italiyada qamalib qoldi. Karfagenliklar tomoniga o'tgan shaharlar yana Rimni qo'llabquwatlay boshladilar. Yosh rimlik sarkarda Publiy Korpeliy Stsipion Ispaniyaga karfagenliklarga qarshi g'olibona urush harakatlarini olib bordi. U Ispaniyani punilardan tozal?b Afrikaga qo'shin tushirdi. Er. av. 202-yilda Karfagen shahri yaqinidagi Zam qishlog'i yonidagi hal qiluvchi Gannibal o'z hayotida birinchi va oxirgi mag'lubiyatni boshidan kechirdi. Karfagen qo'shinlari to ia tor-mor qilindi. Bu safar Rim karfagenliklarga tinchlik shartnomasini og'ir shartlarini qo'ydi: Karfagen barcha koloniyalarini yo'qotdi, barcha kemalarini, jangovar fillarini Rimga topshirishga majbur bo'ldi va katta miqdorda tovon to'ladi. Bu tinchlik shartnomasining og'ir shartlari Karfagenning harbiy-siyosiy

qudratini umrbod zaiflashtirdi. [4]

Rim Karfagen bilan yana bir marta to‘qnashdi. Bu II puni urushi tugaganidan 50 yil o’taganidan keyin sodir bo’ldi. Er. av. 149-yilda III puni urushi boshlandi. Karfagen o’tgan 50 yil ichida o’zining qulay geografik joylashuvi bilan o’z iqtisodiy qudratini qayta tiklashga muvaffaq bo’ldi. U yana xalqaro vositachilik savdosini shimoliy Afrikadagi yirik markaziga aylandi. Rimliklar o’zlarini eski raqibini Rim hududiga bostirib kirganini hech qachon unuta olmas edi. II puni urushidan keyin rimliklar Karfagennenning xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib borar edilar. Karfagenni yana o’z kuch-qudratini qayta tiklayotgani ularni bezovta qildi. Rimliklar Karfagenni er. aw. 201-yildagi shartnomaga shartlaridan birini buzishda bahona qilib, er. av. 149-yilda Karfagenga qarshi urush e’lon qildilar. Karfagen uch yil qamal qilindi. II puni urushida Karfagen qamaliga rahbarlik qilgan Sitsipionning o’g’li Emiliy Sitsipion shaharga bostirib kirdi. Karfagenga senat komissiyasi keldi va shahami to’la yo’q qilishga qaror qildi. [5]

Shahar 16 kun o’t ichida qoldi, aholisi qul qilib sotib yuborildi. II puni urushidan so’ng rimliklar O’rtayer dengizining sharqiy qismini egallash uchun harakat boshladilar. Ular Sharqda Rimning eng xavfli raqibi ellin Makedoniyasiga qarshi uch marta (er. av. 206, 197 va 168-yillar) urush olib bordilar. Rim o’zini yunon shahardavlatlarini Makedoniya zulmidan ozod qiladigan xaloskori deb e’lon qildi. Amalda Makedoniya Yunonistondan haydab chiqarilganidan so’ng Bolqon Yunonistoni Rimga qaram bo’ldi. Ikkinchı makedon urushidan so’ng sharqda Rimga qarshi ittifoq tashkil etishga uringan Salavkiylar hukmdori Antioxni zaiflashtirish uchun rimliklar bor kuchlarini ishga soldilar. Bu vaqtda makedon podshosi Persey Rimga qarshi ittifoqni tashkil etishga urinib ko’rdi. Rim qo’shinlari Makedoniyanı yengdi va bosib olingan hududlarda Makedoniya provinsiyasi tashkil topdi. Tez orada Yunonistonga rimliklar zulmiga qarshi harakat boshlandi. Rimliklar bu harakatni shafqatsiz bostirdilar va er.av. 146-yilda Korinf shahrini vayron qildilar va Yunonistonda Axey provinsiyasini tashkil qildilari. Er.avv. 133-yilda Kichik Osiyoda Pergam podshosi vafot etib, o’z podsholigini Rimga vasiyat qildi. Rimliklar bu yerda yana bir Osiyos provinsiyasini tashkil etishdi. [6]

Foydalanimgan adabiyotlar:

- Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г. А. Стратановского. М.; Л., 1972. («Памятники исторической мысли»; репр. 1993)
- Кадимги дунё тарихи. II килем. Ю.С. Крушкол таҳрирн остида “Уқитувчи” нашриёти. Тошкент - 1975.
- Ражабов Р. Кадим ги дунё тарихи. “Фан ва техника нашриёти ”. Тошкент, 2009
- Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). O ‘ZBEKISTONNING JANUBIY SHAHARLARIDA UY-JOY QURILISHIDAGI YUTUQLAR VA

- MUAMMOLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(12), 25-28.
5. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). SOVET HUKUMATINING DINGA NISBATAN MUNOSABATI VA UNING IJTIMOIY OQIBATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 392-397.
 6. Ollomurodov, N. Y. O. G. L. (2023). SOVET HUKUMATINING DINGA NISBATAN MUNOSABATI VA UNING IJTIMOIY OQIBATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4-2), 392-397.
 7. Boytora, C., & Nurali, O. (2023). Amir Temur and the Times of the Temuris Mints and Monetary Policy. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 16, 1-4.